

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL



Iyul №7, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'lg'in Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 673 sahifa.

E'lon qilishga 2026-yil 30-iyulda
ruxsat etildi.



MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

MATRASULOVA FERUZA BAXODIROVNA

Sho'rlangan marginal yerlarda sholi yetishtirishning iqtisodiy va agroekologik jihatlari (Xorazm viloyati misolida).....9

KOZIMJONOV ABRORBЕК

Suv ta'minot va hudud gaz ta'minot korxonalarida xalqaro standartlarga muvofiq daromad va xarajatlarni tan olish masalalari.....16

KALIMULLINA NARGIZA VLADIMIROVNA

Sanoat sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish.....24

RAXMATULLAYEV JALOLIDDIN MUXIDDINOVICH

Davlat xaridlarini samarali tashkil etish orqali byudjet mablag'larini tejash yo'llari.....30

ISMAYLOV SIROJIDDIN ISOQOVICH

O'zbekistonda yuridik shaxslar tomonidan foyda solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi.....42

TURGUNOV ABDULLOH QUDRATBEK O'G'LI

Korxona faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholashda foyda va rentabellik ko'rsatkichlari.....49

ABDUBOQIYEV MUXAMMAD SHAROFITDINOVICH

Efficiency indicators of financial management mechanisms in joint-stock companies.....55

ZOHIDOV JAMSHID BOTIRXONOVICH

Xizmat ko'rsatish korxona menejmentida axborot texnologiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....63

ACHILOVA FIRUZA KURBANOVNA, PARDAYEV ORIFJON

CHARSHAMIYEVICH

Qashqadaryo viloyatida raqamli infratuzilma va sanoat ishlab chiqarishning hozirgi holati tahlili.....71

UMAROVA ROXILAXON XALILJON QIZI

Mahalla tizimida madaniy loyihalarni boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....80

ATABAYEVA KAROMAT RAJABOVNA

Demografik jarayonlarni o'rganishning nazariy asoslari.....88

URALOV FARRUH ABDURAZZOQOVICH

Hududiy klaster siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari.....95

G'IYOSOV ILXOM KARIMOVICH

Korporativ boshqaruv mexanizmlarining qurilish korxonalarida strategik qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'siri.....109

ANVAROVA LOBARXON SHERZOD QIZI

Sun'iy intellekt asosida strategik va operatsion boshqaruvni optimallashtirish mexanizmlari.....119





SAYIPOV BEGZOD RAHIMOVICH

Valyuta kursi barqarorligini ta'minlashda monetar siyosat vositalarining roli va uning mehnat bozori dinamikasiga ta'siri.....131

KARIMOV INOMJON ORTIKBAEVICH

Qurilish sanoati korxonalarida investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini boshqarishning nazariy asoslarini takomillashtirish.....140

ERKAYEV AKROM NORMUXAMMADOVICH

Milliy iqtisodiyotni sanoatlashuvning nazariy evolyutsiyasi.....150

AXMEDOVA NILUFAR SHUHRATOVNA, RISBEKOVA DILFUZAXON

JALOLIDIN QIZI

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda hududiy jihatlari hamda davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari.....163

SHARIPOV G'ULOMJON QARSHI O'G'LI

Yashil iqtisodiyot sharoitida hududiy boshqaruvning xorijiy tajribasi va O'zbekistonda qo'llash istiqbollari.....169

SAPAROV ILYOS XUDAYMURATOVICH

Jamoatchilik ishonchi va ijro mas'uliyati: «Tashabbusli byudjet»ning yangi bosqichdagi vazifalari.....179

MURTOZAYEVA DILNOZA BOBONIYOZ QIZI

O'zbekiston sharoitida oziq-ovqat bozori marketing tadqiqotlarini o'tkazishda raqamlashtirish jarayonining afzalliklari.....184

ТАДЖИЕВА САЙЁРАХОН УРАЛОВНА

Маркетинговая привлекательность Бухарской области и факторы её формирования.....193

G'OFUROV BEKZOD FAYZULLA O'G'LI

Davlat budjeti mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazoratni kuchaytirish yo'llari.....208

USMONOVA MOHIGUL MANSUR QIZI

Yashil iqtisodiyot va ayollar tadbirkorligi rivojlanishining nazariy-konseptual asoslari.....214

ESHQULOVA NASIBA NORMO'MINOVNA

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini diversifikatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlari.....223

KILICHEV ALISHER AKRAMOVICH

Mavsumiy mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarda samaradorlikni baholashning nazariy-uslubiy yondashuvlari.....234

TADJIYEVA SAYYORAXON URALOVNA

Hudud marketing kapitalining nazariy asoslari va konseptual modeli.....240

SHAMSIKULOVA MOXINA BONU FURKATOVNA

Tibbiy xizmatlar buxgalteriya hisobini takomillashtirishning xorij tajribasi.....254

HAMIDOV RUSHAN ERKINOVICH

Oliy ta'limda iqtisodiy fanlarni o'qitish orqali talabalarning moliyaviy madaniyatini yuksaltirish.....261

SADIKOVA MUSLIMA ALISHER KIZI

Implementation of international standards in the corporate governance system of joint-stock companies of Uzbekistan.....270





XAMDAMOV SARDOR FARMON O'G'LI

Davlat xaridlarining moliyaviy mexanizmi: tushunchasi, tarkibiy elementlari va amal qilish tamoyillari.....276

SHAMSIDINOVA ZILOLAXON MAXMUDJON QIZI, MITILLAYEV IBROHIMJON

Diversifikatsiyalanayotgan bank resurslarida likvidlikni boshqarish.....281

HAMIDOV RUSHAN ERKINOVICH

Ta'lim – moliyaviy savodxonlikni oshirishning asosiy vositasi sifatida: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar.....290

TOXIROV JAVLON RAXIMOVICH

Buxoro viloyati bo'yicha ko'rsatilgan savdo xizmatlari hajmiga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik modellashtirish.....299

ТЛЕУМУРАТОВА БАХАДИРА ГЕНЖЕМУРАТОВИЧА

Развитие и повышение эффективности сферы услуг (на примере Республики Каракалпакстан).....314

ISOQOV HASAN ABDUXALIMOVICH

Mintaqada oziq-ovqat sanoatini innovatsion rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....324

TOXIROV JAVLON RAXIMOVICH

Buxoro viloyati bo'yicha ko'rsatilgan savdo xizmatlari hajmi va unga ta'sir etuvchi omillar dinamikasini iqtisodiy prognozlash.....335

G'ULOMOVA SHAXLO BAXTIYOR QIZI

Improving strategic and operational management of construction projects in uzbekistan: a conceptual adaptation of a hybrid model.....348

IMOMJON KHAMIDOV

Public perceptions of environmental risks and willingness to pay for environmental protection: evidence from Uzbekistan and Central Asia.....355

ШУКУРОВА ШАХЗОДА ДЖАЛОЛОВНА

Влияние инфляционных процессов на развитие внешней торговли Республики Узбекистан.....365

ABDILXATOV ULUG'BEK ABDULQUDDUS O'G'LI

O'zbekiston bank tizimida islom investitsiya mahsulotlarini joriy etishning korxonalar faoliyati samaradorligiga ta'siri.....375

ESHTEMIROVA MA'RIFAT AKRAM QIZI

Digital transformation of the banking sector and financial inclusion in Uzbekistan.....383

JUMAQULOV TEMUR

Mahsulot ishlab chiqarish jarayonida mahsulot tannarxini kamaytirish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'llari.....391

RAXMATOVA JO'RAXONPOSHSHO QAXRAMON QIZI

Ekoturizm subyektlarining innovatsion faoliyati: nazariy asoslari va boshqaruv mexanizmi.....397

TASHPULATOVA MUNIRAXON MAHMUDOVNA

Korxonalarda risk boshqaruvi orqali xodimlar salohiyatidan samarali foydalanishni baholash usullari va modellari.....405





JAMSHID SHODMONOV

The growth of online shopping in Uzbekistan and its impact on consumer behavior.....412

ERKABOYEVA JASMINA SAFARALI QIZI

Xususiyl tadbirkorlik: kichik biznesning rivojlanishi va strategik yutuqlari.....426

TASHNAZAROVA SITORA FAXRIDDINOVNA

Sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishning zaruriyati va o'ziga xos xususiyatlari.....432

ERGASHEVA SHAXZODA BAHROM QIZI

Sun'iy intellekt yordamida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish.....442

BAHROM KAMILOVICH AVEZOV

Orol dengizi mintaqasida qashshoqlikni kamaytirish: ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va institutsional yondashuvlarning ko'p o'lchovli tahlili.....448

MAHMUDOV QUDRATILLO XURSANDBEK O'G'LI

O'zbekiston tijorat banklarida kredit risklarini baholash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish: xalqaro standartlar va milliy amaliyot.....458

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

OCHILDIEV UKTAM OLLANAZAROVICH

Surxondaryo viloyatida anor yetishtirishning agroteknologik xususiyatlari.....466

XUDAYQULOV JONIBEK BOZAROVICH, QASHQABOYEVA CHULPANOY TULKUNOVNA, ALISHEROV XASAN ALISHER O'G'LI

Dunyo mamlakatlari va O'zbekistonda sholini muttasil yetishtirishda mineral va organik o'g'itlar qo'llashning hosildorlikga ta'siri.....472

ЧОРИЕВА ЗАРХОЛ ҚОДИРОВА

Суғориш усуллари ва тартибини анор навлари фенологик фазаларининг ўтиш муддати ва давомийлигига таъсири.....478

MIRZASOLIYEV MIRZAOSIMJON MIRZASOYPOVICH

Oraliq ekin sharoitida turli ekish sxemalarining piyoz hosildorligiga ta'siri.....484

МАВЛОНОВА НАСИБА УМАРОВА

Оптималь суғориш ва сув танқислиги шароитида ғўзанинг навлараро мураккаб дурагайларида олинган оила, тизма ва навида 1000 дона чигит вази белгисининг шаклланиши.....488

MUXTOROV O'ZBEKXON BURHONOVICH

Davlat mulkchiligi sharoitida qishloq xo'jaligi yerlarini me'yoriy baholashning gibrid modeli: obyektiv va bozor signallarini integratsiyalash asosida.....493

YO'LDOSHEV NURBEK ERGASHOVICH, SAYFULLAEVA MAXBUBA ILXOMOVNA

«Alpek» mahalliy antigelmint substansiyasining quyonlarda o'tkir toksikligini klinik, gematologik va biokimyoviy baholash.....501

OCHILOVA MUXAYYO SHAKAR QIZI

Baholash natijalari asosida yer tuzish loyihalarini optimallashtirish.....509





O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA BOSHQARISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: XALQARO STANDARTLAR VA MILLIY AMALIYOT

MAHMUDOV QUDRATILLO XURSANDBEK O'G'LI

Biznesni rivojlantirish bankining bosh mutaxassisi

E-mail: qudratillo.makhmudov@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston tijorat banklarida kredit risklarini baholash va boshqarishning nazariy hamda amaliy jihatlarini xalqaro standartlar asosida tahlil qilingan. Xususan, kredit risklarini aniqlash, baholash va monitoring qilishning zamonaviy mexanizmlari, Basel qo'mitasi tavsiyalari hamda O'zbekiston bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning kredit portfeli sifatiga ta'siri ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, kredit risklarini boshqarishda raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va kredit skoring tizimlarini qo'llash istiqbollari asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida kredit risklarini boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kredit riski, tijorat banki, kredit portfeli, Basel III, risk-menejment, kredit skoring, muammoli kreditlar, kredit monitoringi, prudensial me'yorlar, bank tizimi.

Аннотация. В статье исследованы теоретические и практические аспекты оценки и управления кредитными рисками в коммерческих банках Узбекистана на основе международных стандартов. Особое внимание уделено современным механизмам идентификации, оценки и мониторинга кредитных рисков, рекомендациям Базельского комитета и влиянию проводимых банковских реформ на качество кредитного портфеля. Также рассмотрены перспективы применения цифровых технологий, искусственного интеллекта и систем кредитного скоринга в управлении кредитными рисками. По результатам исследования разработаны научно-практические рекомендации по повышению эффективности системы управления кредитными рисками.

Ключевые слова: кредитный риск, коммерческий банк, кредитный портфель, Basel III, риск-менеджмент, кредитный скоринг, проблемные кредиты, кредитный мониторинг, пруденциальные нормативы, банковская система.

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of credit risk assessment and management in the commercial banks of Uzbekistan based on international standards. Particular attention is paid to modern approaches to credit risk identification, assessment, and monitoring, the recommendations of the Basel Committee, and the impact of ongoing banking reforms on the quality of loan portfolios. The study also discusses the prospects of applying digital technologies, artificial intelligence, and credit scoring systems in credit risk management. Based on the findings, scientific and practical recommendations are proposed to improve the effectiveness of credit risk management mechanisms in the banking sector.

Keywords: credit risk, commercial bank, loan portfolio, Basel III, risk management, credit scoring, non-performing loans, credit monitoring, prudential regulation, banking system.

KIRISH

Bank tizimi mamlakat iqtisodiyotining moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi asosiy institutsional bo'g'inlardan biri hisoblanadi. Tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilayotgan kreditlar hajmining ortib borishi kredit risklarini samarali boshqarish tizimini takomillashtirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Kredit operatsiyalarining kengayishi banklarning daromadlilikini oshirish bilan bir qatorda, kredit portfeli sifati yomonlashishi, muammoli kreditlar ulushining ortishi va kapital yetarliligiga salbiy ta'sir





ko'rsatishi mumkin. Shu sababli kredit risklarini baholash va boshqarish mexanizmlarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish zamonaviy bank menejmentining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi [1].

Jahon amaliyotida kredit risklarini boshqarish tizimi Basel Bank nazorati qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan prudensial talablar asosida shakllantirilgan bo'lib, mazkur standartlar bank kapitalining yetarliligi, risklarni baholash, ichki nazorat hamda stress-test tizimlarini takomillashtirishni nazarda tutadi [2]. Ayniqsa, Basel III standartlarida kredit risklarini baholashda riskka tortilgan aktivlar (Risk Weighted Assets), kutilayotgan kredit yo'qotishlari (Expected Credit Loss) hamda kapital buferlari muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda bank tizimini isloh qilish, kredit portfeli sifatini oshirish hamda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) va Basel tamoyillarini amaliyotga bosqichma-bosqich joriy etishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda [3]. Natijada tijorat banklarida kredit risklarini monitoring qilish, qarzдорlarning moliyaviy holatini kompleks baholash va muammoli kreditlarni erta aniqlash tizimlari rivojlantirilmoqda.

Shu bilan birga, raqamli transformatsiya jarayonlari bank faoliyatida Big Data, sun'iy intellekt, mashinaviy o'qitish (Machine Learning) hamda kredit skoring texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Mazkur texnologiyalar kredit oluvchilarning to'lovga qobiliyatini yuqori aniqlikda prognoz qilish, defolt ehtimolini baholash hamda kredit portfelinin risk darajasini real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini beradi [4].

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekiston tijorat banklarida kredit risklarini baholash va boshqarishning amaldagi mexanizmlarini xalqaro standartlar asosida tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda kredit risklarini boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot natijalari bank tizimida risk-menejmentni takomillashtirish, kredit portfeli sifatini oshirish hamda banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Kredit risklarini boshqarish masalalari bank menejmenti va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Jahon iqtisodiyotida yuz bergan moliyaviy inqirozlar kredit risklarini baholashning an'anaviy yondashuvlarini takomillashtirish, zamonaviy risk-menejment tizimlarini joriy etish hamda xalqaro standartlarni amaliyotga keng tatbiq etish zaruratini yuzaga keltirdi. Shu bois ushbu yo'nalishda ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Frederic S. Mishkin o'zining "The Economics of Money, Banking and Financial Markets" asarida bank faoliyatidagi eng muhim moliyaviy xavflardan biri kredit riski ekanligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, banklar kredit ajratishdan oldin qarz oluvchining moliyaviy holati, pul oqimlari, kredit tarixi hamda garov





ta'minotini kompleks baholashi zarur. Kredit riskini samarali boshqarish bank aktivlari sifati va moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi [1].

Anthony Saunders va Marcia Millon Cornett "Financial Institutions Management: A Risk Management Approach" nomli asarida kredit riskini bank faoliyatidagi asosiy moliyaviy risk sifatida tavsiflaydi. Mualliflarning fikriga ko'ra, kredit riski qarz oluvchining shartnomada belgilangan majburiyatlarini to'liq yoki o'z vaqtida bajarmasligi natijasida yuzaga keladi. Kredit riskini kamaytirishda kredit portfelini diversifikatsiya qilish, limitlar tizimini qo'llash, ichki reyting modellari va muntazam monitoring mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi [2].

Joël Bessis "Risk Management in Banking" asarida kredit risklarini boshqarishni zamonaviy bank risk-menejmentining eng muhim tarkibiy qismi sifatida baholaydi. Olim kredit risklarini boshqarish faqat kredit berish bosqichida emas, balki kreditning butun hayotiy sikli davomida amalga oshirilishi lozimligini asoslaydi. Uning fikricha, risklarni aniqlash, baholash, monitoring qilish va nazorat qilish yagona integratsiyalashgan tizim asosida olib borilgandagina bankning moliyaviy barqarorligi ta'minlanadi [3].

Peter S. Rose va Sylvia C. Hudgins "Bank Management and Financial Services" kitobida kredit risklarini boshqarishda "5C" tamoyili (Character, Capacity, Capital, Collateral va Conditions) alohida ahamiyatga ega ekanligini qayd etadi. Mualliflarning ta'kidlashicha, kredit oluvchini kompleks baholash bankning muammoli kreditlari ulushini kamaytirish va kredit portfeli sifatini oshirishga xizmat qiladi [4].

Bank nazorati bo'yicha Basel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan "Principles for the Management of Credit Risk" hujjatida kredit risklarini boshqarishning xalqaro tamoyillari bayon etilgan. Mazkur hujjatda bank direktorlar kengashi va boshqaruvi tomonidan kredit siyosatini ishlab chiqish, kredit risklarini aniqlash, o'lchash, monitoring qilish hamda ichki nazorat tizimini takomillashtirish zarurligi ta'kidlanadi. Ushbu tamoyillar bugungi kunda dunyoning aksariyat mamlakatlari bank tizimida kredit risklarini boshqarishning asosiy metodologik asosi hisoblanadi [5].

Shuningdek, Basel qo'mitasi tomonidan qabul qilingan "Basel III: A Global Regulatory Framework for More Resilient Banks and Banking Systems" hujjatida kapital yetarliligini oshirish, riskka tortilgan aktivlarni hisoblash hamda banklarning stress-test tizimini rivojlantirish orqali kredit risklarini kamaytirish mexanizmlari taklif etilgan. Mazkur standartlar global moliyaviy inqirozdan keyin bank tizimining barqarorligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etdi [6].

O'zbekiston bank tizimida kredit risklarini boshqarish masalalari ham so'nggi yillarda alohida e'tibor qaratilayotgan yo'nalishlardan biridir. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qabul qilingan prudensial me'yorlar va tijorat banklari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarda kredit risklarini baholash, aktivlar sifatini tasniflash, ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi





zaxiralar shakllantirish hamda muammoli kreditlarni monitoring qilish bo'yicha aniq talablar belgilangan [7].

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari doirasida IFRS 9 "Financial Instruments" standarti kredit risklarini baholash tizimiga yangi yondashuvni joriy etdi. Ushbu standartga muvofiq banklar kreditlar bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni oldindan baholashi va Expected Credit Loss (ECL) modeli asosida zaxiralar shakllantirishi lozim. Mazkur yondashuv kredit risklarini erta aniqlash va bank kapitalining barqarorligini ta'minlash imkonini beradi [8].

Yuqoridagi ilmiy qarashlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kredit risklarini boshqarishning zamonaviy modeli faqat kredit oluvchini dastlabki baholash bilan cheklanmaydi. U kredit portfelini diversifikatsiya qilish, ichki reyting tizimlarini rivojlantirish, kredit monitoringini raqamlashtirish, sun'iy intellekt va Big Data texnologiyalaridan foydalanish hamda xalqaro prudensial standartlarni milliy bank amaliyotiga izchil joriy etishni o'z ichiga oladigan kompleks boshqaruv tizimi sifatida qaralmoqda. Aynan shu yondashuv O'zbekiston tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishning ilmiy va amaliy asosini tashkil etadi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston tijorat banklarida kredit risklarini baholash va boshqarish mexanizmlarining amaldagi holatini o'rganishda kompleks ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, mantiqiy umumlashtirish hamda ilmiy abstraksiyalash usullari qo'llanildi. Kredit risklarini boshqarish bo'yicha xalqaro standartlar, xususan Basel qo'mitasi tamoyillari hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining prudensial talablari o'zaro qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklarining ochiq moliyaviy hisobotlari, xalqaro moliya institutlari materiallari hamda kredit risklarini boshqarishga oid ilmiy adabiyotlar tashkil etdi. Tahlil davomida kredit portfeli sifati, muammoli kreditlar (NPL), kreditlarning tarmoqlar bo'yicha diversifikatsiyasi, kapital yetarliligi va ehtimoliy kredit yo'qotishlariga ajratilgan zaxiralar kabi ko'rsatkichlar o'rganildi.

Shuningdek, kredit risklarini boshqarish samaradorligini baholashda taqqoslash, guruhlash va dinamik tahlil usullaridan foydalanildi. Olingan natijalar asosida O'zbekiston tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish tizimini xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklari faoliyatining asosiy daromad manbai kredit operatsiyalari hisoblanganligi sababli kredit risklarini samarali boshqarish bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri sanaladi. Kredit





portfelining sifat darajasi nafaqat bankning foydalilik ko'rsatkichlariga, balki uning likvidligi, kapital yetarliligi va investitsion jozibadorligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois kredit risklarini baholash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish O'zbekiston bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston bank tizimida kreditlash hajmi sezilarli darajada oshib bormoqda. Kredit portfelining kengayishi iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga xizmat qilayotgan bo'lsa-da, ayrim tarmoqlarda kredit riskining ortishi, kredit portfeli konsentratsiyasi hamda muammoli kreditlar ulushining ko'payishi ehtimolini ham yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, iqtisodiyotning ayrim tarmoqlariga yuqori darajada kredit resurslari yo'naltirilishi kredit portfelining diversifikatsiya darajasini pasaytiradi va banklarning makroiqtisodiy xatarlarga nisbatan sezgirligini kuchaytiradi. Shu sababli kredit portfelining tarmoqlar, hududlar, mijozlar toifalari hamda kredit mahsulotlari kesimida diversifikatsiya qilinishi kredit risklarini kamaytirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Xalqaro bank amaliyotida kredit risklarini boshqarish bir necha o'zaro bog'liq bosqichlardan iborat bo'lib, ular kredit risklarini aniqlash, baholash, monitoring qilish va nazorat qilish jarayonlarini qamrab oladi. O'zbekiston tijorat banklarida ham ushbu mexanizmlar bosqichma-bosqich joriy etilayotgan bo'lsa-da, ayrim banklarda kredit oluvchilarni baholashda moliyaviy ko'rsatkichlarga haddan tashqari tayanish, nomoliyaviy omillarni yetarli hisobga olmaslik hamda kredit monitoringi tizimining avtomatlashtirilish darajasi pastligi kuzatilmoqda. Bu esa ayrim kreditlarning o'z vaqtida qaytmasligi va muammoli kreditlar ulushining ortishiga sabab bo'lishi mumkin.

Kredit risklarini samarali boshqarishning muhim shartlaridan biri qarz oluvchining kreditga layoqatliligini har tomonlama baholashdir. Zamonaviy bank amaliyotida bu jarayon moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda mijozning kredit tarixi, biznes modeli, pul oqimlari, bozor mavqei, boshqaruv sifati, garov ta'minoti hamda tashqi iqtisodiy omillarni kompleks tahlil qilishni talab etadi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar asosida shakllantirilayotgan kredit skoring tizimlari inson omilini kamaytirish, qaror qabul qilish tezligini oshirish hamda kredit risklarini aniqroq baholash imkoniyatini yaratmoqda.

Shuningdek, xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, kredit risklarini boshqarishda Early Warning System (EWS), ya'ni erta ogohlantirish tizimidan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ushbu tizim kredit oluvchining moliyaviy holatidagi salbiy o'zgarishlarni kredit muddati tugashidan oldin aniqlash imkonini beradi. O'zbekiston banklarida ham mazkur mexanizmni sun'iy intellekt va Big Data texnologiyalari asosida rivojlantirish muammoli kreditlar ulushini kamaytirishda muhim natijalar berishi mumkin.

Kredit risklarini boshqarish samaradorligini oshirishda banklarda stress-test amaliyotini muntazam o'tkazish ham alohida ahamiyatga ega. Stress-testlar foiz stavkalari, valyuta kurslari, inflyatsiya yoki iqtisodiy faollikdagi salbiy o'zgarishlarning kredit portfeliga ta'sirini oldindan baholash imkonini beradi.





Natijada bank rahbariyati ehtimoliy yo'qotishlarni kamaytirishga qaratilgan qarorlarni o'z vaqtida qabul qilishi mumkin.

1-jadval

O'zbekiston tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish mexanizmlarining amaldagi holati va takomillashtirish yo'nalishlari

Kredit riskini boshqarish elementi	Amaldagi holat	Mavjud muammo	Takomillashtirish yo'nalishi
Kredit oluvchini baholash	Moliyaviy hisobotlar asosida	Nomoliyaviy omillar yetarli baholanmaydi	AI va kredit skoring tizimlarini joriy etish
Kredit portfeli	Tarmoqlar bo'yicha shakllangan	Yuqori konsentratsiya xavfi	Diversifikatsiyani kuchaytirish
Kredit monitoringi	Davriy monitoring	Real vaqt monitoringi cheklangan	Raqamli monitoring platformalarini joriy etish
Muammoli kreditlarni aniqlash	Kredit muddati buzilgandan keyin	Erta aniqlash mexanizmi sust	Early Warning System (EWS) joriy etish
Risklarni baholash	Ekspert baholash ustun	Subyektivlik mavjud	Scoring va Machine Learning modellaridan foydalanish
Zaxiralar shakllantirish	IFRS 9 talablari asosida	Prognoz aniqligi yetarli emas	Expected Credit Loss modelini takomillashtirish

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish tizimi sezilarli darajada rivojlanayotgan bo'lsa-da, uning samaradorligini oshirish uchun raqamli texnologiyalarni keng joriy etish zarur. Xususan, kredit skoring modellarini sun'iy intellekt algoritmlari bilan boyitish, Big Data asosida mijozlarning moliyaviy xatti-harakatlarini tahlil qilish hamda real vaqt rejimida kredit monitoringini tashkil etish kredit risklarini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin.

Bundan tashqari, kredit portfelinin sifatini oshirish maqsadida banklarda riskga asoslangan ichki reyting tizimlarini takomillashtirish, kredit siyosatini makroiqtisodiy omillar bilan integratsiyalash hamda stress-test natijalarini strategik qarorlar qabul qilishda keng qo'llash maqsadga muvofiqdir. Kredit risklarini boshqarishda sun'iy intellekt, mashinaviy o'qitish va prognozlash modellaridan foydalanish nafaqat muammoli kreditlar ulushini kamaytiradi, balki bank kapitalining barqarorligini oshirish, kredit portfeli sifatini yaxshilash va moliyaviy vositachilik samaradorligini ta'minlashga ham xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, kredit risklarini boshqarish tizimini xalqaro standartlar asosida modernizatsiya qilish O'zbekiston bank tizimining uzoq muddatli raqobatbardoshligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.





XULOSA

Mazkur tadqiqot davomida O'zbekiston tijorat banklarida kredit risklarini baholash va boshqarish mexanizmlarining nazariy hamda amaliy jihatlari xalqaro standartlar asosida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bank tizimida kreditlash hajmining kengayishi bilan bir qatorda kredit risklarini samarali boshqarish masalasi moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning eng muhim omillaridan biriga aylanmoqda. Kredit portfeli sifati, muammoli kreditlar ulushi, kapital yetarliligi hamda ehtimoliy kredit yo'qotishlariga qarshi zaxiralar tizimi banklarning riskka chidamliligini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlar hisoblanadi.

Tahlillar natijasida O'zbekiston tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish tizimi so'nggi yillarda sezilarli darajada takomillashganligi, biroq kredit oluvchilarni baholashda zamonaviy analitik vositalardan foydalanish, kredit portfelini diversifikatsiya qilish, real vaqt rejimida monitoringni tashkil etish hamda muammoli kreditlarni erta aniqlash mexanizmlarini rivojlantirish zarurligi aniqlandi. Xususan, kredit risklarini boshqarishda raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, Big Data va Machine Learning algoritmlaridan foydalanish risklarni baholash aniqligini oshirish bilan bir qatorda boshqaruv qarorlarini tezkor va asosli qabul qilish imkonini beradi.

Shuningdek, Basel III tamoyillari hamda IFRS 9 standartlari asosida kredit risklarini baholash tizimini yanada takomillashtirish, Expected Credit Loss (ECL) modelini bank amaliyotida to'liq qo'llash, ichki reyting tizimlarini rivojlantirish va Early Warning System (EWS) mexanizmlarini joriy etish kredit portfeli sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa banklarning kapital barqarorligini mustahkamlash, kredit yo'qotishlarini kamaytirish hamda moliyaviy vositachilik samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

- tijorat banklarida sun'iy intellekt va Big Data texnologiyalariga asoslangan kredit skoring tizimlarini keng joriy etish;
- kredit portfelini iqtisodiyot tarmoqlari, hududlar va mijozlar segmentlari kesimida diversifikatsiya qilish;
- kredit monitoringini real vaqt rejimida amalga oshiruvchi raqamli platformalarni yaratish;
- kredit risklarini baholashda stress-test va ssenariy tahlillarini muntazam qo'llash;
- ichki reyting tizimlarini Basel III hamda IFRS 9 talablariga muvofiq modernizatsiya qilish;
- muammoli kreditlarni erta aniqlash va oldini olish maqsadida Early Warning System (EWS) mexanizmlarini rivojlantirish;
- kredit risklarini boshqarishda makroiqtisodiy omillarni hisobga oluvchi prognozlash modellaridan foydalanishni kengaytirish.

Umuman olganda, kredit risklarini boshqarish tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish O'zbekiston bank tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, kredit portfeli sifatini yaxshilash, muammoli kreditlar ulushini kamaytirish hamda bank sektorining raqobatbardoshligini oshirishning muhim





omili hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar tijorat banklarining risk-menejment tizimini yanada rivojlantirish hamda bank faoliyati samaradorligini oshirishga amaliy jihatdan xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mishkin, Frederic S. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. 13th Edition. Pearson Education Limited. Harlow, England, 2022. – 720 p.
2. Saunders, Anthony, Cornett, Marcia Millon. Financial Institutions Management: A Risk Management Approach. 10th Edition. McGraw-Hill Education. New York, 2020. – 784 p.
3. Bessis, Joël. Risk Management in Banking. 5th Edition. John Wiley & Sons Ltd. Chichester, United Kingdom, 2015. – 504 p.
4. Rose, Peter S., Hudgins, Sylvia C. Bank Management and Financial Services. 10th Edition. McGraw-Hill Education. New York, 2013. – 672 p.
5. Basel Committee on Banking Supervision. Principles for the Management of Credit Risk. Bank for International Settlements (BIS). Basel, Switzerland, 2000. – 27 p.
6. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: A Global Regulatory Framework for More Resilient Banks and Banking Systems. Revised Version. Bank for International Settlements (BIS). Basel, Switzerland, 2011. – 77 p.
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash, aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralarni shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida Nizom. Toshkent, 2023.
8. International Accounting Standards Board (IASB). IFRS 9 Financial Instruments. London: IFRS Foundation, 2014 (amended editions). – Standard.



2026-yil, iyul. №7-son.

Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**